



INNOVATION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

2-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2025-YIL 6-8-NOYABR

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
BELORUSSIYA MILLIY TEXNIKA UNIVERSITETI
OT FDBTM KUBAN DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR “OLIMA” UYUSHMASI***

***«INNOVATSION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI»***

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy tezislari to‘plami

7-8 noyabr 2025 y.

**QARSHI
«INTELLEKT» NASHRIYOTI
2025**

UDK 633.51:631.8:632.4:632.95

**G‘O‘ZA YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI STIMULYATOR+
INSEKTITSID+ FUNGITSID YORDAMIDA OSHIRISH YO‘LLARI**

Xakimova Muabara Xalilovna – Qarshi Davlat Texnika Universiteti “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedراسi professori.

Annotatsiya: Maqolada g‘o‘za navlarini yetishtirishda stimulyator, insektitsid va fungitsidlar qo‘llanilganda g‘o‘zaning fitosanitar holati bilan birga uning o‘shishiga ham ijobiy ta‘siri ko‘rsatilgan. G‘o‘za o‘simliklarining bo‘yi nazorat variantiga nisbatan o‘rta tolali Buxoro-8 navida 8-29 sm, ingichka tolali, Marvarid navida 16-21 sm yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: G‘o‘za, Buxoro-8 navi, Marvarid navi, yetishtirish, stimulyator, insektitsid, fungitsid.

«Aqlli dala» yo‘nalishidagi texnologik yechimlarni joriy etish orqali o‘simlik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning raqamli texnologiyalarini ishlab chiqish va monitoringini olib borish, ilmiy, ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan [1].

Shundan kelib chiqib, respublikamizda g‘o‘za navlarini yetishtirishda tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida g‘o‘zaning o‘shish va rivojlanish davrlarini kuzatish va uning holatidagi o‘zgarishini o‘rganish, baholash, zararkunandalari va kasalliklarini biologiyasini urganish orqali, ekinlarning fitosanitar holati, zararli organizmlar populyatsiyalarining fenologik, yosh va hududiy tarqalishi hamda rivojlanishini nazorat qilib, qarshi kurashishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish natijasida iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan g‘o‘zani rivojlanishini nazorat qiladigan konvalyutsion neyron tarmog‘ini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘simliklarning o‘shishi va rivojlanishi ularning hayotidagi eng muhim jarayonlardan hisoblanadi va o‘simlik turiga, naviga, yetishtirish sharoiti va qo‘llanilayotgan texnologik tadbirlarga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, g‘o‘zaning o‘shishi va rivojlanishi ham u yetishtirilayotgan hududning tuproq-iqlim sharoitiga hamda qo‘llanilayotgan agrotexnologik tadbirlarga uzviy bog‘liqdir. [3; 6].

K.Haydarov, K.Mo‘minov [2] tajribalarida ang‘iz va ildiz qoldiqlari haydab tashlanib, g‘o‘za o‘stirilganida, 1 avgustda o‘simlik bo‘yi 67,4-71,8 sm, hosil shoxlari 11,3-14,6 va ko‘saklar soni 8,4-11,5 donani tashkil etgan bo‘lsa, mazkur siderat ekinlarining barcha massasi ko‘kat o‘g‘it sifatida haydab yuborilganda ko‘rsatkichlar mos ravishda 4,5-5,8 sm, 3,2-3,9 va 0,8-1,3 donaga ko‘p bo‘lganligi aniqlangan.

Tadqiqotlarimiz tajriba dalasidagi g‘o‘zalarning vegetatsiya davrida o‘tkazilgan fenologik kuzatishlar va biometrik o‘lchashlarning natijalari tahlil etilganda qo‘llanilgan pestitsidlar o‘simliklarning o‘shishi, rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi (1-jadval).

G'oz poyasining balandligi

№	Tajriba variantlari	01.VI	01.VII	01.VIII	01.IX
Buxoro-8					
1	Nazorat (st)	21	32	70	83
2	Stimulyator	20	36	78	98
3	Insektitsid	19	35	76	97
4	Fungitsid	22	36	77	96
5	Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid	21	42	82	112
Marvarid					
1	Nazorat (st)	17	31	68	79
2	Stimulyator	18	35	77	95
3	Insektitsid	17	35	74	95
4	Fungitsid	19	33	76	94
5	Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid	20	38	81	97

G'ozning bo'yi vegetatsiya davrining shonalash va gullash fazalarining boshlarida (1.VI va 1.VII) sezilarli darajada jadal bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik o'simliklar barg sathi va quruq massasi, hosil elementlarining oshishi tufayli bu jarayon sekinlashdi.

Tajriba dalasida 1 iyunda o'tkazilgan kuzatishlarda o'rta tolali Buxoro-8 navida bosh poyasining balandligi nazorat variantda 21 sm ni tashkil etgan bo'lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 20 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 19 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 22 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 19 sm ni tashkil etdi. Ingichka tolali Marvarid navida nazorat variantda 17 sm ni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 18 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 18 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 19 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 20 sm ni tashkil yetib, variantlar o'rtasida sezilarsiz o'zgarishlar aniqlanmadi.

Kuzatishlar 1 iyulda o'tkazilganda o'rta tolali Buxoro-8 navida o'simliklarning balandligi nazorat variantda 32 sm ni tashkil etgan bo'lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 36 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 35 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 36 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 42 sm ni tashkil etdi. Ingichka tolali Marvarid navida nazorat variantda 31 sm ni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 35 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 35 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 33 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 38 sm ni tashkil yetib, pistitsidlar qo'llanilgan tajriba variantlaridagi


o'simliklar nazorat variantdagi o'simliklardan o'rta tolali Buxoro-8 navida 3-10 sm, ingichka tolali Marvarid navida 2-7 sm baland bo'lganligi qayd etildi.

G'o'zaning bosh poyasining o'sish dinamikasi 1 avgustda tahlil etilganida ham yuqoridagi qonuniyat kuzatildi. O'rta tolali Buxoro-8 navida o'simliklarning balandligi nazorat variantda 70 sm ni tashkil etgan bo'lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 78 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 76 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 77 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 82 sm ni tashkil etdi. Ingichka tolali Marvarid navida nazorat variantda 68 sm ni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 77 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 74 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 76 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 81 sm ni tashkil yetib, pistitsidlar qo'llanilgan tajriba variantlaridagi o'simliklar nazorat variantdagi o'simliklardan o'rta tolali Buxoro-8 navida 6-12 sm, ingichka tolali Marvarid navida 6-13 sm baland bo'lganligi qayd etildi [3].

G'o'zaning bosh poyasining o'sish dinamikasi 1 sentabrda tahlil etilganida o'rta tolali Buxoro-8 navida o'simliklarning balandligi nazorat variantda 83 sm ni tashkil etgan bo'lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 98 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 97 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 96 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 112 sm ni tashkil etdi. Ingichka tolali Marvarid navida nazorat variantda 79 sm ni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo'llanganda 95 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo'llanganda 95 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo'llanganda 94 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda 97 sm ni tashkil yetib, pistitsidlar qo'llanilgan tajriba variantlaridagi o'simliklar nazorat variantdagi o'simliklardan o'rta tolali Buxoro-8 navida 8-29 sm, ingichka tolali Marvarid navida 16-21 sm baland bo'lganligi qayd etildi.

O'simliklar balandligidagi va o'sishidagi bunday farqlanishlar eng avvalo zararkunanda va kasalliklarga qarshi qo'llanilgan pestitsidlarning ta'sirida ekinlar hosil qilgan biomassa miqdori bilan bog'liq ekanligi bilan izohlanadi.

G'o'za bosh poyasining o'sishidagi farqlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, pestitsidlarni qo'llanilishi bilan dala tajribalarida o'simlik bo'yining balandligi Stimulyator + Insektitsid + Fungitsid birgalikda qo'llangan variantda yuqori bo'lishi aniqlandi. Bu holat, Stimulyator, insektitsid, fungitsidlarning g'o'zaning fitosanitar holati yaxshilanib, oziqa rejimiga ta'siri bilan bog'liq.



1-rasm. G‘o‘za poyasining balandligini 01.IX nazoratga nisbatan farqi, sm

Demak, Stimulyator, insektitsid va fungitsidlarning qo‘llanilishi g‘o‘zaning fitosanitar holati bilan birga o‘ning o‘shiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, o‘simliklarning bo‘yi nazorat variantga nisbatan o‘rta tolali Buxoro-8 navida 8-29 sm, ingichka tolali Marvarid navida 16-21 sm yuqori bo‘lishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-sonli «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gm Farmoni
2. Chorshanbiyev N.E., Hakimova M.X., Saydalov F.M. Ingichka tolali g‘o‘za navlarida hosildorlik elementlarini o‘rganish// Fan va innovatsiya. Xalkaro ilmiy konferensiya, Toshkent, 2022 yil 20 oktabr, 164-165-betlar
3. Chorshanbiyev N.E., Nabiyev S.M., Xamdullayev Sh.A., Matniyazova X.X., Shavqiyev J.SH. Ingichka tolali “Marvarid” g‘o‘za navini yetishtirishning afzalliklari // “O‘zbekistonda genetik sohasining bugungi holati, muammolari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy kon., 2018, b.53-55.
4. Chorshanbiyev N.E., Shovqiyev J.SH. Nabiyev S.M., Xamdullayev Sh.A., Usmanov R.M., Bozorov T.A. Suv bilan turlicha ta‘minlanganlik sharoitlarida g‘o‘za navlarining fiziologik-biokimyoviy va qimmatli xo‘jalik ko‘rsatkichlari // O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi, 2019, №4\2 (78), B.157-162.
5. Haydarov K.F., Mo‘minov K.M. Sug‘orish eroziyasiga qarshi kurashish tadbirlarini tuproq unumdorligi va paxta hosiliga ta‘siri // Qishloq xo‘jalik fani yutuqlari – fermer xo‘jaliklari istiqboliga. Professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-qism. -Samarqand, 2014. –B. 99-101.

<i>Egamberdiyeva S.R.</i>	Investitsion aktivlar va ularning hisobini samarali tashkil etishning moliyaviy ahamiyati.....	435
<i>Саматова Ш.Ю.</i>	Выбросы загрязняющих веществ при сжигании органического топлива и их влияние на охрану окружающей среды.....	438
<i>Ochilova N.A.</i>	Quality indicators of service provision to the working-age population.....	441
<i>Aliyeva M.G'.</i> <i>Kunuzoqova M.N.</i>	Ilm fan, texnika va innovatsiyalar samaradorligini ta'minlashda olim ayollarning ishtiroki.....	445
<i>Alimxanova N. A.</i>	Tovar-moddiy zahiralar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida takomillashtirish yo'llari	447
<i>Боймуродова Н.М.</i>	Модернизация водоподготовительного оборудования для подачи воды в тепловые сети Мубарекской ТЭС.....	449
<i>Бейтуллаева Р.Х.</i>	Энергосбережение как фактор устойчивого функционирования систем водного хозяйства.....	453
<i>Egamberdiyeva S.R.</i>	Moliyaviy aktivlarni tasniflash, hisobga olish va hisobot tizimini takomillashtirish.....	456
<i>Hasanova Y.M.</i> <i>Rasulova Z.O.</i>	Mintaqada mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'llari	458
<i>Navruz-zoda Z.B.</i>	Turistik klasterlar yaratish xususiyatlari.....	460
<i>Ochilova N.A.</i> <i>Kobilova M.A.</i>	Economic basis of assessing the efficiency of implementing innovative technologies in agriculture	463
<i>Rajabova G.B.</i>	Islomiy moliya va bank mahsulotlarini O'zbekistonda joriy etish yo'llari va istiqbollari.....	467
<i>Rashidova X.</i>	Ways to effectively organize the sale of beekeeping products in market conditions and improve the marketing strategy.....	470
<i>Shabarova N. N.</i>	Kartoshka yetishtirish jarayonida o'simtasiz tuganaklardan foydalanishda o'stiruvchi stimulyatorlarning hosildorlikka ta'sirini baholash....	473
<i>Rakhmanova M.D.</i>	The role of English in the development of tourism in Uzbekistan.....	476
<i>Xakimova M.X</i>	G'o'za yetishtirish samaradorligini stimulyator+ insektitsid+ fungitsid yordamida oshirish yo'llari.....	479
<i>Xalilova M. R.</i>	Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari.....	483
<i>Xashimova N.A.</i>	Transport infratuzilmasining milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni	486